

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025 dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 365 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
“MENING MAKTABIM” LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	



GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Ma'mun universiteti dotsent v.b., PhD

e-mail: gulirano_ruzmetova@mamunedu.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, uning statistik monitoring tizimi hamda demografik jarayonlar bilan bog'liqligi inson kapitalini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Jahon banki va xalqaro indekslar ma'lumotlari asosida gender siyosatining natijadorligi baholanib, 2025-yil holatiga ko'ra aholi soni, gender tarkibi, mehnatga layoqatli aholi ulushi hamda 25–29 yoshdagi erkaklar va ayollarning hududiy taqsimoti o'rganildi. Tadqiqot natijalari mamlakatda demografik dividend shakllanganini va gender tengligi inson kapitalidan samarali foydalanishning muhim omili ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, inson kapitali, demografiya, mehnat resurslari, ayollar bandligi, O'zbekiston.

Abstract. The article analyzes the state policy implemented in Uzbekistan to ensure gender equality, its statistical monitoring system, and its relationship with demographic processes from the perspective of human capital development. Based on data from the World Bank and international indices, the effectiveness of gender policy was evaluated, and projections for 2025 regarding population size, gender composition, the proportion of working-age population, and the regional distribution of men and women aged 25-29 were examined. The research results indicate that a demographic dividend has formed in the country, and gender equality is a crucial factor in the effective utilization of human capital.

Key words: gender equality, human capital, demography, labor resources, women's employment, Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируется государственная политика, проводимая в Узбекистане по обеспечению гендерного равенства, ее система статистического мониторинга и связь с демографическими процессами с точки зрения развития человеческого капитала. На основе данных Всемирного банка и международных индексов оценена результативность гендерной политики, а также изучены численность населения, гендерная структура, доля трудоспособного населения и территориальное распределение мужчин и женщин в возрасте 25-29 лет по состоянию на 2025 год. Результаты исследования показывают, что в стране сформировался демографический дивиденд, и гендерное равенство является важным фактором эффективного использования человеческого капитала.

Ключевые слова: гендерное равенство, человеческий капитал, демография, трудовые ресурсы, занятость женщин, Узбекистан.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida gender tengligi masalasi nafaqat inson huquqlari, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham dolzarb muammo hisoblanadi. "Gender tengligi – 2030" strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga xususan, 5-maqсад "Gender tengligini ta'minlash va barcha ayollar hamda qizlarning huquqlarini kengaytirish"ga mos holda ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyada ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, ularni siyosiy qarorlar qabul qilishda faol bo'lishini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Jumladan, ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini oshirish, parlament va mahalliy kengashlarda 30 foizlik gender kvotani saqlab qolish, ayollar uchun liderlik dasturlarini joriy qilish kabi mezonlar mavjud. Strategiyada ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy faollik hamda siyosiy ishtirok sohalarida mavjud gender nomutanosibliklarni qisqartirishga qaratilgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar va samarali monitoring mexanizmlari belgilangan. Mazkur yondashuv mamlakatda gender siyosatini tizimli, izchil va natijador amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Strategiyaning amaliy hayotga joriy etilishi ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

World Bank'ning 2024-yil mart oyida e'lon qilingan Women, Business and the Law hisobotiga asosan, 100 ballik shkalada O'zbekiston 82,5 ball to'plab, huquqiy gender tenglik bo'yicha eng katta yutuqlarga erishgan davlatlar qatoriga kirdi.[1] Tahlillarga ko'ra, ayniqsa "mehnatga haq to'lash" va "nikoh/oila" indikatorlari bo'yicha qabul qilingan huquqiy islohotlar O'zbekistonning reytingdagi o'rnini sezilarli darajada yaxshiladi[2]. Bundan tashqari, Gender Tenglik va Boshqaruv Indeksi (GEGI) doirasida ham O'zbekiston muvaffaqiyatga erishdi: global reytingda 103-o'ringdan 52-o'ringa ko'tarildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha komissiyasi tavsiyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va

zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to'g'risida"gi Qonunlar, 2019-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4235-son Qarori, shuningdek, 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son Qarori mamlakatda gender statistikasining mustahkam me'yoriy-huquqiy poydevorini shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Gender tengligi va ayollar iqtisodiy faolligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojga ta'siri ilk bor inson kapitali nazariyasi doirasida ilmiy asoslab berilgan. T. Shults va G. Bekker inson kapitalini iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida izohlab, ayollar ta'limi va salomatligiga kiritiladigan investitsiyalar jamiyat farovonligini oshirishini isbotlaganlar [1; 2].

A.Sen tomonidan ishlab chiqilgan "Imkoniyatlar yondashuvi" (Capabilities Approach) da ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi [2]. Ushbu yondashuvga ko'ra, ayollarning ta'lim olish, mehnat qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish darajasi milliy rivojlanish sifatini belgilovchi mezon hisoblanadi.

Jahon bankining tadqiqotlarida gender tengligi darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda YaIM o'sish sur'ati barqarorroq ekani empirik jihatdan isbotlangan [3]. Dollar va Gatti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayollar bandligining ortishi iqtisodiy o'sish bilan musbat bog'langanligi aniqlangan [4].

Mamlakatimizda mahalliy olimlar S.G'aniyeva, T.Tojiyeva, M.Yusupova, D.Rahimova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda gender tengligi siyosatining huquqiy asoslari, uning ijtimoiy institutlarga ta'siri hamda hududlar kesimidagi natijalari atroflicha tahlil qilingan [5; 6]. O'zbekistonda olib borilgan empirik tadqiqotlarda (M.Isakov, D.Xolmatov) ayollarga ajratilgan imtiyozli kreditlar hududiy tadbirkorlik faolligi va bandlikda sezilarli o'sish keltirib chiqarayotgani iqtisodiy-matematik modellar yordamida isbotlangan [7].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) hisobotlariga ko'ra, ayollar va erkaklar bandligi o'rtasidagi tafovutning 25 % ga qisqarishi o'rta daromadli mamlakatlarda YaIMni o'rtacha 3–5 % ga oshiradi [8]. Jahon banki tadqiqotlarida ayollar mehnat bozoridagi ishtiroki oshgan sari davlat byudjeti daromadlari, soliq tushumlari va investitsion faollik ham ortib borishi aniqlangan [9].

Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2016–2024-yillarda O'zbekistonda ayollarning iqtisodiy faolligi izchil oshib borgan, ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo va xizmatlar sohasida ularning ulushi 60 % dan yuqori bo'lgan [16].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, gender.stat.uz, Jahon banki va BMT ma'lumotlari asosida gender tengligi va demografik ko'rsatkichlarning inson kapitaliga ta'siri tahlil qilindi. Tahlil jarayonida statistik, taqqoslama, dinamik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar rasmiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gender tengligi sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining samaradorligini baholash va monitoring qilish maqsadida O'zbekistonda keng qamrovli statistik indikatorlar tizimi joriy etilgan bo'lib, u gender tengligini ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarning muhim axborot bazasini shakllantiradi. Mazkur tizim uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: minimal gender ko'rsatkichlari, maqsadli gender indikatorlari hamda gender statistikasi bo'yicha kengaytirilgan ko'rsatkichlar majmuasi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 52 ta asosiy gender indikatorlarini milliy sharoitga moslashtirgan holda qabul qilgan bo'lib, ular Prezidentning PQ-4235-son qarori bilan tasdiqlangan [11]. Milliy ehtiyojlardan kelib chiqib yana 2 ta indikator qo'shilishi natijasida jami 54 ta minimal gender ko'rsatkichi shakllantirilgan va ular gender.stat.uz rasmiy platformasiga joylashtirilgan. Har bir indikator bo'yicha mas'ul davlat organlari belgilanib, ma'lumotlarni muntazam taqdim etish tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, 2030-yilgacha gender tengligiga erishish bo'yicha qabul qilingan Milliy strategiya doirasida 61 ta maqsadli gender ko'rsatkichi ishlab chiqilgan bo'lib, ular gender siyosatining natijaviylik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu indikatorlar orqali ta'limga qamrov darajasi, mehnat bozoridagi ishtirok, sog'liqni saqlashga teng kirish imkoniyatlari hamda rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushi kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimli ravishda monitoring qilinmoqda. Bugungi kunga kelib, gender.stat.uz platformasida 180 dan ortiq genderni o'z ichiga olgan statistik ko'rsatkichlar uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) hamda besh xil formatda (PDF, Excel, interaktiv jadval, grafik va boshqa shakllarda) jamoatchilikka ochiq holda taqdim etilmoqda.



Gender tengligini ta'minlash, ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratish inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. O'zbekistonda ayollarning o'rta va oliy ta'limga qamrovi izchil oshib borayotgan bo'lsada, ularning mehnat bozorida faolligi va yuqori boshqaruv lavozimlaridagi ulushi hanuz past darajada qolmoqda. Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayollar iqtisodiy faol aholining 54,2 foizini tashkil etishiga qaramay, ularning salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti [10]. Bu holat gender tengligiga oid indikatorlar asosida real vaziyatni baholash, muammolarni aniq diagnostika qilish va inson kapitalidan samarali foydalanishga qaratilgan kompleks siyosiy-iqtisodiy choralarni ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.


O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash va ushbu yo'nalishdagi davlat siyosati samaradorligini ishonchli baholash maqsadida ko'p bosqichli va ochiq statistik monitoring tizimi shakllantirilgan. Mazkur tizim zamonaviy raqamli platformalar, keng qamrovli idoralararo ma'lumotlar bazalari hamda muntazam statistik kuzatuvlar orqali faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunda gender masalalari bo'yicha statistik axborotlarni jamlash, tahlil qilish va jamoatchilikka yetkazishda 5 ta asosiy platforma faol ishlamoqda. Jumladan, stat.uz, nsdq.stat.uz, aholi.stat.uz, siat.stat.uz hamda data.egov.uz kabi rasmiy portallar orqali gender ko'rsatkichlariga oid keng qamrovli ma'lumotlar e'lon qilinib, ochiq ma'lumotlar siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu platformalar orqali nafaqat milliy reytinglar, balki idoralar kesimidagi gender statistikasi ham jamoatchilikka taqdim etilmoqda.

Gender statistikasi bazasini shakllantirish jarayonida 550 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar ma'lumot yetkazib beruvchi subyekt sifatida jalb etilgan bo'lib, ularning axborotlari asosida 27 turdagi statistik kuzatuvlar doirasida qo'shimcha gender ko'rsatkichlari shakllantirilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar rasmiy veb-saytlar orqali muntazam yangilanib borilib, foydalanuvchilarga ochiq taqdim etilmoqda. Bu jarayon davlat statistika tizimining ochiq, ishonchli va tahliliy salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, vazirlik va idoralarda yuritiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida 30 dan ortiq statistik kuzatuvlar tashkil etilgan bo'lib, ular gender tenglikka oid ma'lumotlarning idoralararo uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Gender tengligiga erishish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiya doirasida belgilangan 61 ta maqsadli ko'rsatkichni amalga oshirish jarayoni ham puxta statistik asosda olib borilmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash uchun vazirlik va idoralar tomonidan Statistika agentligi bilan hamkorlikda har bir maqsadli indikator bo'yicha ma'lumotlarni ishlab chiqish, ularni turli manbalar kesimida shakllantirish, mavjud bo'lmagan axborotlarni yaratish hamda muntazam monitoring mexanizmlarini joriy etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar belgilanmoqda. Bu jarayon gender siyosatining natijaviyligini baholash, resurslarni maqsadli yo'naltirish va institutsional mas'uliyatni kuchaytirish imkonini bermoqda.

Mazkur statistik infratuzilmaning shakllanishi gender tengligini ta'minlash bilan bir qatorda inson kapitalini rivojlantirishga ham bevosita xizmat qilmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozorida erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish hamda iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilashga zamin yaratadi. Gender ko'rsatkichlarining ochiq va tizimli monitoringi asosida ayollarning bandligi, kasbiy salohiyati, tadbirkorlikdagi ishtiroki hamda boshqaruv tizimidagi ulushi aniq baholanib, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishida ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari ishlab chiqilmoqda. Shu bois, O'zbekistonda gender statistikasi tizimining institutsional jihatdan mustahkamlanishi nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlash, balki iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.


BMT tomonidan e'lon qilingan demografik reytingda 2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston aholi sonining mutlaq o'sishi bo'yicha dunyoda 26-o'rinni egallab, aholi soni 687 323 kishiga oshgani qayd etildi [18]. Mazkur ko'rsatkich O'zbekistonni Afrika va Janubiy Osiyoning yuqori tug'ilish sur'atlariga ega mamlakatlari orasida emas, balki modernizatsiya, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari bilan bir vaqtda yuqori tabiiy o'sish saqlanib qolayotgan davlatlar guruhida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, AQSH (+573 ming), Turkiya (+477 ming) va Eron (+677 ming) kabi yirik davlatlar bilan solishtirilganda ham O'zbekistonning mutlaq demografik o'sishi nisbatan yuqori bo'lib, mamlakatning demografik salohiyati barqarorligini tasdiqlaydi [18].



1-rasm. 2025-yilda demografik o'sish bo'yicha O'zbekistonning tanlangan davlatlar bilan taqqoslanishi

Manba: World Population Prospects 2025. New York, 2025. Ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Demografik ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi mamlakat inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Mehnatga layoqatli aholining yuqori ulushi iqtisodiy faollikni oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga investitsiyalar samaradorligini ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, aholi sonining ortib borishi bandlik, uy-joy, infratuzilma, ta'lim va tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabning ham mutanosib ravishda o'sishini taqozo etadi.



2-rasm. O'zbekiston aholisi gender tarkibining 2025-yilgi ko'rinishi

Manba: milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida umumiy aholi soni 37 543,2 ming kishini tashkil etib, mamlakatda barqaror demografik o'sish jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi. Aholining gender tarkibiga ko'ra, ayollar soni 18 638,7 ming nafar, erkaklar soni esa 18 904,5 ming nafarni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar aholining jinsiy tuzilmasida nisbatan muvozanat saqlanib qolayotganini, biroq erkaklar ulushi biroz ustunligini ko'rsatadi. Xususan, erkaklar umumiy aholining taxminan 50,4 foizini, ayollar esa 49,6 foizini tashkil etadi.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida mehnatga layoqatli aholi ulushi 56,0 foizni tashkil etib, mamlakatda ishchi kuchi salohiyati nisbatan barqaror ekanini ko'rsatadi. Hududlar kesimida mazkur ko'rsatkich 55,0–58,6 foiz oralig'ida tebranib, mintaqalar o'rtasida nisbatan yaqin, biroq demografik va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq farqlar mavjudligini anglatadi. Mehnatga layoqatli aholi ulushining eng yuqori darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasi (58,6%), Xorazm viloyati (58,3%) va Sirdaryo viloyatida (58,2%) qayd etilgan.

Eng past ulush Surxondaryo (55,0%), Samarqand (55,1%) va Qashqadaryo (55,2%) viloyatlariga to'g'ri keladi. Ushbu tafovutlar hududlardagi tug'ilish darajasi, yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari va iqtisodiy faollik bilan izohlanadi. Umuman olganda, mehnatga layoqatli aholi ulushining 2025-yilda respublika bo'yicha 56 foiz atrofida shakllanishi O'zbekistonda demografik dividenddan foydalanish uchun zarur sharoit mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval. 2025-yilda O'zbekiston hududlari bo'yicha mehnatga layoqatli aholi ulushi (foizlarda)

T/r	Klassifikator	2025
1	O'zbekiston Respublikasi	56
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	58,6
3	Andijon viloyati	55,5
	Buxoro viloyati	56,9
4	Jizzax viloyati	55,5
5	Qashqadaryo viloyati	55,2
6	Navoiy viloyati	56,7
7	Namangan viloyati	55,8
8	Samarqand viloyati	55,1
9	Surxondaryo viloyati	55
10	Sirdaryo viloyati	58,2
11	Toshkent viloyati	56,1
12	Farg'ona viloyati	55,8
13	Xorazm viloyati	58,3
14	Toshkent shahri	56,1

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Mamlakatimizda joriy yilda 2025-yilda O'zbekistonda 25–29 yoshdagi mehnatga layoqatli erkaklar (1 470 633 nafar) va ayollar (1 404 903 nafar) sonining yuqori darajada shakllanishi mamlakat inson kapitalining eng faol va samarador qatlamini tashkil etayotganini ko'rsatadi. Ushbu yosh guruhi ta'limdan mehnat bozoriga to'liq kirib kelish, kasbiy malaka hosil qilish, innovatsion salohiyatni ro'yobga chiqarish hamda oilaviy-demografik barqarorlikni ta'minlash jihatidan strategik ahamiyatga ega. Erkaklar va ayollar soni o'rtasidagi nisbatan muvozanatli gender tarkib (taxminan 51% erkaklar va 49% ayollar) inson kapitalining jinsiy jihatdan barqaror takror ishlab chiqarilayotganini anglatadi.

2-jadval. 2025-yilda O'zbekiston hududlari bo'yicha 25–29 yoshdagi erkaklar soni (kishi)

Klassifikator	2025
O'zbekiston Respublikasi	1470633
Qoraqalpog'iston Respublikasi	78301
Andijon viloyati	135150
Buxoro viloyati	76780
Jizzax viloyati	63147
Qashqadaryo viloyati	153302
Navoiy viloyati	39957
Namangan viloyati	124367
Samarqand viloyati	173481
Surxondaryo viloyati	125201
Sirdaryo viloyati	35887
Toshkent viloyati	117423
Farg'ona viloyati	162870
Xorazm viloyati	78948
Toshkent shahri	105819

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida 25–29 yoshdagi mehnatga layoqatli erkaklar soni 1 470 633 nafarni tashkil etib, ushbu yosh guruhi mamlakat mehnat resurslarining eng faol qatlamlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (173 481 nafar), Farg'ona (162 870 nafar) va Qashqadaryo (153 302 nafar) viloyatlarida qayd etilgan. Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (35 887 nafar) va Navoiy (39 957 nafar) viloyatlariga to'g'ri keladi. Poytaxt hududlarida Toshkent viloyatida 117 423 nafar, Toshkent shahrida 105 819 nafar yosh erkaklar jamlangan bo'lib, bu ichki migratsiya va iqtisodiy faollikning yuqoriligini aks ettiradi. Umuman olganda, 25–29 yoshdagi erkaklar sonining yuqoriligi O'zbekistonda yosh mehnat resurslari salohiyati keng ekanini va bandlik siyosati uchun muhim demografik asos mavjudligini tasdiqlaydi.

3-jadval. 2025-yilda O'zbekiston hududlari bo'yicha 25–29 yoshdagi ayollar soni (kishi)

Klassifikator	2025
O'zbekiston Respublikasi	1404903
Qoraqalpog'iston Respublikasi	74686
Andijon viloyati	127507
Buxoro viloyati	73704
Jizzax viloyati	59735
Qashqadaryo viloyati	142330
Navoiy viloyati	38553
Namangan tumani	7630

Samarqand viloyati	165628
Surxondaryo viloyati	119237
Sirdaryo viloyati	35617
Toshkent viloyati	110807
Farg'ona viloyati	153569
Xorazm viloyati	77410
Toshkent shahri	108624

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2025-yilda O'zbekiston Respublikasida 25–29 yoshdagi mehnatga layoqatli ayollar soni 1 404 903 nafarni tashkil etib, ushbu yosh guruhi ayollar mehnat resurslarining asosiy va strategik qatlami hisoblanadi. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (165 628 nafar), Farg'ona (153 569 nafar) va Qashqadaryo (142 330 nafar) viloyatlarida qayd etilgan. Nisbatan past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (35 617 nafar) va Navoiy (38 553 nafar) viloyatlariga to'g'ri keladi. Toshkent viloyatida 110 807 nafar, Toshkent shahrida 108 624 nafar yosh ayollar jamlangan. Umuman olganda, 25–29 yoshdagi ayollar sonining yuqoriligi O'zbekistonda ayollar inson kapitali salohiyati keng ekanini hamda bandlik, tadbirkorlik va reproduktiv demografiya uchun muhim demografik asos mavjudligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda joriy yilda 25–29 yoshdagi mehnatga layoqatli ayollar va erkaklar sonining yuqori bo'lishi mamlakatning demografik dividendi real bosqichga kirganini ko'rsatadi. Ushbu yosh inson kapitalini sifatli ta'lim, samarali bandlik siyosati, ayollar va erkaklar uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar hamda innovatsion faoliyat bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, uning statistik monitoring mexanizmlari hamda demografik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi inson kapitalini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mamlakatda gender tengligi bo'yicha mustahkam me'yoriy-huquqiy baza shakllanganini, shuningdek, xalqaro reytinglar (World Bank, GEGI) natijalari O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlayotganini ko'rsatdi.

Tahlillar 2025-yilda O'zbekistonda aholi sonining 37,5 mln nafarga yetgani, mehnatga layoqatli aholi ulushining 56 foizni tashkil etgani hamda 25–29 yoshdagi erkaklar (1,47 mln) va ayollar (1,40 mln) yuqori ulushga egaligi mamlakatda inson kapitalining eng faol va strategik qatlami shakllanganini tasdiqlashini ko'rsatdi. Ushbu yosh guruhida erkaklar va ayollar soni o'rtasidagi nisbatan muvozanatli gender nisbat inson kapitalining jinsiy jihatdan barqaror takror ishlab chiqarilayotganidan dalolat beradi.

Hududiy tahlillar Samarqand, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida yosh mehnat resurslari yuqori konsentratsiyaga ega ekanini, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida esa nisbatan past ekanini ko'rsatdi. Bu holat hududiy demografik sig'im, migratsiya jarayonlari va iqtisodiy ixtisoslashuv bilan izohlanadi. Poytaxt hududlarida yosh erkaklar va ayollarning jamlanishi ichki migratsiya va iqtisodiy faollikning yuqoriligi bilan bevosita bog'liq.

Umuman olganda, o'rganilgan statistik va institutsional ma'lumotlar O'zbekistonda gender tengligi siyosati demografik o'sish va mehnat resurslari kengayishi fonida inson kapitalini rivojlantirishning muhim drayveriga aylanayotganini ko'rsatadi. Gender tengligini ta'minlash, ayniqsa ayollar mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va boshqaruv tizimiga jalb etish orqali inson kapitalidan samarali foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu bois gender tengligi va demografik siyosat uyg'unligi O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Women, Business and the Law 2024. Washington, DC: World Bank Group, 2024. <https://wbl.worldbank.org>
2. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2024. Geneva, 2024.
3. World Bank. Gender Equality and Development. World Development Report. Washington, DC, 2012.
4. Dollar, D., & Gatti, R. Gender Inequality, Income, and Growth: Are Good Times Good for Women? World Bank Policy Research Report, 1999.
5. G'aniyeva S. O'zbekistonda gender siyosatining huquqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
6. Tojiyeva T., Yusupova M. Gender tengligi va ijtimoiy institutlar rivoji. Toshkent, 2021.
7. Isakov M., Xolmatov D. Ayollar tadbirkorligini kreditlash va hududiy bandlik o'rtasidagi bog'liqlik. "Iqtisodiyot va



- innovatsiyalar” jurnali, 2022, №4.
8. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Women 2023. Geneva, 2023.
 9. World Bank. Gender Equality and Economic Growth. Washington, DC, 2021.
 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-4235-son, 2019-yil 7-mart. “Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini kafolatlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”.
 11. Ruzmetova G.A. Analysis of Indicators and Factors for Assessing Human Capital Development. American Journal of Economics and Business Management Vol. 8 Issue 4 pp. 1659-1667 ISSN: 2576-5973 <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajeblm> -1660-1667 b
 12. Ruzmetova G.A. Intellectual potential of human capital. European Journal of Economics, Finance and Business Development ISSN (E): 2938-3633/Volume 3, Issue 5, May – 2025 -24-32 b
 13. Ruzmetova G.A. Mintaqada inson kapitalini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va aholini ta'lim bilan qamrab olish darajasi tahlili. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi 2024-5/2. -98-104 b
 14. Ruzmetova G.A. Развитие человеческого капитала в развитых странах. Темір yo'l transporti; dolzarb masalalar va innovatsiyalar. №2 2025 -141-146 b
 15. Ruzmetova G.A. [Xorazm viloyatida inson kapitalini rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili](#). AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR JURNALI 2025-yil, №7/[7]-son
 16. <https://stat.uz>
 17. <https://gender.stat.uz>
 18. <https://population.un.org>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100